



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - avgust

VI-39-32-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Bulung'ur tumanidagi xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumta'lim muassasalarida 2021-2022-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Z.Aliqulovning hisoboti.**

Bulung'ur tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Aliqulova Zamira Boltabayevnaning 2021-2022-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini eshitib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Bulung'ur tumani Kengashining XXXIX sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Bulung'ur tumanidagi xalq ta'limi muassasalarida 2021-2022-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Z.Aliqulovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bulung'ur tuman hokimining o'rinbosari (A.Buriboyevga), tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri (Z.Aliqulova)larga:

maktabdan tashqari ta'lim sohasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada yuksaltirish;

o'qituvchi kasbining maqomi va obro'sini ko'tarish, umumta'lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalq ta'limi tizimi xodimlarining moddiy va ijtimoiy

qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash, ularning samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratish;

o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbiy yo‘naltirishning samarali uslublarini, o‘quvchilarning o‘quv, psixologik va jismoniy yuklamalari optimallashtirishini inobatga olgan holda o‘qitish va tarbiyalashni joriy qilish;

umumta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarga ijtimoiy kafolatlarni ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim va tarbiya (shu jumladan, inklyuziv) olishlariga ko‘maklashuvchi mos muhitni yaratish;

o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g‘oyalari yanada chuqur singdirish, milliy mentalitetga yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tomonidan davlat ta’lim standartlari va talablarining bajarilishining tizimli monitoringini olib borish vazifalari topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Axmedov), tuman hokimining o‘rinbosari A.Buriboyev, tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri Z.Aliqulovalar zimmasiga yuklansin.

**Кенгаш раиси**



**B.Baxramov**